

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

XITOIDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING G'OYAVIY-MA'NAVIY MEKANIZMLARI

Baxramov Adaxamjon Bakirjanovich

O'zbekiston Milliy universiteti, tadqiqotchi.

e-mail: adaxamjonbakirjanov@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-3560-3477>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Xitoy Xalq Respublikasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan g'oyaviy-ma'naviy mexanizmlar tahlil qilingan. Tadqiqotda Xitoy ta'lim tizimi, davlat siyosati, milliy tarix va madaniy merosdan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda jamoatchilik institutlarining yoshlar tarbiyasidagi o'zni o'rganilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xitoyda vatanparvarlik tarbiyasi uzluksiz va kompleks tizim asosida tashkil etilib, ta'lim, madaniyat, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy faoliyat bilan uyg'unlashtirilgan. Maqolada Xitoy tajribasining asosiy xususiyatlari, samarali jihatlari hamda boshqa mamlakatlar uchun ahamiyatli bo'lgan metodik yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik tarbiyasi, yoshlar, Xitoy, g'oyaviy tarbiya, milliy qadriyatlar, ta'lim tizimi, fuqarolik mas'uliyati, ma'naviy tarbiya.

ИДЕЙНО-ДУХОВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ В КИТАЕ

Бахрамов Адахамжон Бакиржанович

Национальный университет Узбекистана, исследователь.

Аннотация.

В статье анализируются идейно-духовные механизмы, направленные на патриотическое воспитание молодёжи в Китайской Народной Республике. В исследовании рассматриваются система образования Китая, государственная политика, использование национальной истории и культурного наследия, информационно-коммуникационные технологии, а также роль общественных институтов в воспитании молодёжи. Анализ показывает, что патриотическое воспитание в Китае организовано на основе непрерывной и комплексной системы и интегрировано с образованием, культурой, средствами массовой информации и общественной деятельностью. В статье раскрываются основные особенности и эффективные аспекты китайского опыта, а также методические подходы, представляющие практический интерес для других стран.

Ключевые слова: патриотическое воспитание, молодёжь, Китай, идейное воспитание, национальные ценности, система образования, гражданская ответственность, духовно-нравственное воспитание.

IDEOLOGICAL AND SPIRITUAL MECHANISMS OF PATRIOTIC EDUCATION OF YOUTH IN CHINA

Baxramov Adaxamjon Bakirjanovich

National University of Uzbekistan, Researcher.

Abstract.

This article analyzes the ideological and spiritual mechanisms aimed at fostering patriotism among young people in the People's Republic of China. The study examines China's education system, state policy, the use of national history and cultural heritage, information and communication technologies, and the role of public institutions in youth education. The analysis shows that patriotic education in China is organized as a continuous and comprehensive system integrated with education, culture, mass media, and social activities. The article highlights the key characteristics and effective aspects of the Chinese experience, as well as methodological approaches that may be relevant to other countries.

Keywords: patriotic education, youth, China, ideological education, national values, education system, civic responsibility, spiritual and moral education.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida yosh avlodning milliy o'zligini anglashi, Vatanga sadoqat, jamiyat oldidagi mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish har bir davlatning muhim ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari natijasida turli madaniyatlar, qadriyatlar va axborot oqimlarining o'zaro ta'siri kuchayib borayotgan bir paytda yoshlarning milliy manfaatlar, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarga munosabatini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli axborot makonining keskin kengayishi, ijtimoiy tarmoqlar

va turli media platformalarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri ortib borayotgan bugungi davrda ularning g'oyaviy barqarorligini ta'minlash, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarga hurmat va davlat taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantirish dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Xitoy modelida vatanparvarlik tushunchasi faqat Vatanga bo'lgan hissiy munosabat bilan cheklanmaydi. U milliy birlikni saqlash, ijtimoiy mas'uliyatni anglash, tarixiy xotiraga hurmat, milliy manfaatlarni qo'llab-quvvatlash hamda davlat va jamiyat taraqqiyotiga amaliy hissa qo'shish kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Shu jihatdan vatanparvarlik tarbiyasi yosh shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy faolligi va fuqarolik ongini rivojlantirish vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Xitoyda yoshlar tarbiyasiga oid yondashuvlar mamlakatning ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti, konfutsiylik an'analari, zamonaviy davlat mafkurasi va ta'lim siyosati asosida shakllangan. Xususan, jamiyat manfaatlari shaxsiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish, kattalarga hurmat, jamoaviy mas'uliyat, intizom va davlat oldidagi burch kabi tamoyillar yoshlar tarbiyasining muhim tarkibiy qismlariga aylangan. Davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar orqali ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, muzeylar, tarixiy-ma'rifiy maskanlar, madaniy tashkilotlar va jamoat institutlarining faoliyati yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishga yo'naltirilgan [1]. Bunda maktab va oliy ta'lim tizimida tarix, madaniyat, fuqarolik ta'limi va ma'naviy-ma'rifiy fanlardan foydalanish bilan bir qatorda, turli ijtimoiy loyihalar, tarixiy xotira tadbirlari, muzey va memorial majmualarga tashriflar hamda jamoatchilik faoliyatida ishtirok etish amaliyotlariga ham alohida e'tibor qaratiladi. So'nggi yillarda esa raqamli kommunikatsiya vositalari, internet platformalari va multimedia mahsulotlaridan foydalanish vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy shakllaridan biriga aylanmoqda. Bu esa an'anaviy g'oyaviy-ma'naviy tarbiya vositalarining yangi axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashayotganini ko'rsatadi.

Maqolada Xitoyda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qo'llanilayotgan zamonaviy g'oyaviy-ma'naviy mexanizmlar tahlil qilinib, ularning mazmuni, asosiy yo'nalishlari hamda yoshlar ijtimoiy ongiga ta'sir ko'rsatish xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasida ta'lim, tarixiy xotira, milliy madaniyat, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiyaning o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot vazifalari Xitoyda vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va g'oyaviy asoslarini o'rganish, ta'lim tizimidagi tarbiyaviy mexanizmlarni tahlil qilish, milliy tarix va madaniy meros imkoniyatlaridan foydalanish usullarini yoritish, raqamli muhit hamda ommaviy axborot vositalarining yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini baholash, shuningdek, ushbu tizimning o'ziga xos jihatlarini aniqlashdan iborat. Natijada Xitoy tajribasida yoshlarning milliy o'zligini anglashi, ijtimoiy mas'uliyati va Vatan taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy g'oyaviy-ma'naviy omillarni tizimli ravishda yoritish ko'zda tutiladi.

2. METHODS (Tadqiqot metodologiyasi)

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi. Tadqiqot manbalari sifatida Xitoy ta'lim siyosatiga oid hujjatlar, davlat dasturlari, ilmiy maqolalar, pedagogik tadqiqotlar va xalqaro tashkilotlar materiallaridan foydalanildi.

RESULTS (Tadqiqot natijalari)

Xitoyda yoshlarni g'oyaviy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashning asosiy institutlaridan biri ta'lim tizimi hisoblanadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya — «deyuy» alohida yo'nalish sifatida qaralib, u o'quvchilarda nafaqat axloqiy fazilatlarini, balki jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyat, fuqarolik burchi hamda milliy manfaatlarga daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qiladi [2]. Mazkur yondashuv ta'limning barcha bosqichlarida izchil davom ettirilib, yoshlarning dunyoqarashi va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish bilan chambarchas bog'lanadi.

Ta'lim jarayonida mamlakat tarixini chuqur o'rganish, milliy madaniyat va an'alarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, jamiyat oldidagi mas'uliyatni anglash, intizom, mehnatsevarlik va jamoaviylik qadriyatlarini ulug'lash g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunda yoshlarning shaxsiy rivojlanishi jamiyat manfaatlari bilan uyg'un holda talqin qilinadi. Shu sababli ta'lim mazmunida nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy mas'uliyatli va faol fuqaroni shakllantirish vazifasi ham muhim o'rin tutadi.

O'quv dasturlarida Xitoy sivilizatsiyasi tarixi, milliy qahramonlar hayoti, mamlakat taraqqiyotining asosiy bosqichlari, tarixiy voqealar va madaniy yutuqlar haqidagi bilimlarga keng o'rin ajratiladi [1]. Bunday mazmun yoshlarning o'z mamlakati tarixini yaxlit jarayon sifatida anglashiga, milliy taraqqiyotning tarixiy ildizlarini tushunishiga hamda o'zini ushbu tarixiy jarayonning davomchisi sifatida his etishiga yordam beradi.

Xitoy tajribasida tarixiy xotira yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy xotira orqali yosh avlodga mamlakatning o'tmishi, erishilgan yutuqlari, murakkab tarixiy davrlari va jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan shaxslar faoliyati haqida tizimli tasavvur berishga intilinadi. Natijada tarixiy bilimlar faqat nazariy ma'lumot sifatida emas, balki vatanparvarlik va fuqarolik tuyg'ularini shakllantiruvchi tarbiyaviy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bu yo'nalishda tarixiy muzeylar, xotira maskanlari, milliy yodgorliklar va madaniy meros obyektlaridan tarbiya maqsadlarida faol foydalaniladi. Ta'lim muassasalari tomonidan tarixiy joylarga tashkil etiladigan tashriflar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va ekskursiyalar yoshlarning tarixiy bilimlarini amaliy taassurotlar bilan boyitadi. Bunday faoliyat ularda mamlakat o'tmishiga hurmat, milliy g'urur, avlodlar davomiyligi va kelajak taraqqiyoti uchun mas'uliyat hissini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, XXRda so'nggi yillarda vatanparvarlik tarbiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lami ham kengayib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasi bilan ishlashda ularning kundalik axborot iste'moli xususiyatlariga mos keluvchi zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishga katta e'tibor beriladi. Jumladan, onlayn ta'lim platformalari,

virtual muzeylar, tarixiy va hujjatli filmlar, interaktiv multimedia materiallari, mobil ilovalar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi ma'rifiy loyihalar orqali tarixiy va milliy mazmundagi g'oyalar yoshlar uchun tushunarli va qiziqarli shaklda yetkaziladi.

Raqamli vositalarning qo'llanilishi vatanparvarlik tarbiyasining an'anaviy shakllarini yangi kommunikativ imkoniyatlar bilan boyitadi. Xususan, virtual ekskursiyalar, videomateriallar va interaktiv kontent yoshlarning tarixiy voqealarni tasavvur qilishini osonlashtirib, ularning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa Xitoy tajribasida ta'lim, tarixiy xotira va raqamli kommunikatsiya vositalarining o'zaro uyg'unligi yoshlarning milliy o'zligini anglash, fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [2].

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ko'plab tarixiy filmlar suratga olinib, ular ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ib qilinmoqda. 2017–2026-yillar mobaynida O'zbekiston kinematografiyasida milliy qahramonlar va davlat arboblari haqidagi biografik filmlar, harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi tarixiy dramalar, Ikkinchi jahon urushi voqealariga bag'ishlangan filmlar, o'rta asrlar tarixi va davlatchilik an'alarini yorituvchi epik loyihalar, xalqaro hamkorlikda suratga olingan yirik tarixiy ekran asarlarini yaratish rivojlandi. Ushbu filmlardan, ayniqsa, **«Mendirman Jaloliddin»**, **«O'zbek qizi»**, **«Bahodir Yalangto'sh»** va **«Amir Timur»** yoshlarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish nuqtayi nazaridan muhim ekran asarlari sifatida e'tirof etiladi. Quyida eng ommalashgan filmlar ro'yxati keltiriladi.

Elparvar — XIX asr oxiri – XX asr boshidagi milliy ozodlik va vatanparvarlik g'oyalari asosida suratga olingan tarixiy drama.

Kuldan tug'ilganlar — mo'g'ullar bosqini davridagi xalq qarshiligi va ozodlik kurashi haqidagi tarixiy film.

Mendirman Jaloliddin (tarixiy serial) — Jaloliddin Manguberdi hayoti va mo'g'ullarga qarshi kurashi haqida. O'zbekiston va Turkiya hamkorligida ishlangan yirik tarixiy ekran loyihasi.

O'zbek qizi — Ikkinchi jahon urushi yillarida frontda xizmat qilgan o'zbek qizining jasorati haqidagi harbiy-tarixiy film.

Bahodir Yalangto'sh — Yalangto'sh Bahodir hayoti va Samarqand tarixi bilan bog'liq voqealarni yorituvchi tarixiy film.

Amir Timur — Amir Temurning yoshlik davri va hokimiyatga kelishi haqidagi xalqaro tarixiy film (O'zbekiston–Qozog'iston hamkorligida).

Xitoyda vatanparvarlik tarbiyasi nazariy bilim bilan cheklanmaydi. Yoshlar turli ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali jamiyatga foyda keltirish g'oyasini o'zlashtiradi. Ularning asosiy yo'nalishlari sifatida volontyorlik harakatlari, ekologik aksiyalar, mahalliy jamoalarga yordam dasturlari, ijtimoiy tashabbuslarni keltirish mumkin. Bu jarayon yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiradi [3].

DISCUSSION (Muhokama)

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xitoyda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash birgina ta'lim muassasalari faoliyati bilan cheklanmaydi, balki ta'lim tizimi, oila, ommaviy axborot vositalari, madaniy muassasalar, jamoat tashkilotlari hamda raqamli platformalarning o'zaro hamkorligiga asoslangan kompleks tizim sifatida shakllangan. Mazkur tizimning asosiy maqsadi yoshlarning milliy o'zligini anglashini kuchaytirish, ularda davlat va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantirish hamda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishdan iborat.

Xitoy modelida, avvalo, vatanparvarlik tarbiyasining ta'lim tizimi bilan uzviy bog'langanligi alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda yoshlarga mamlakat tarixi, milliy madaniyat, davlat taraqqiyoti, tarixiy shaxslar va jamiyatning umumiy qadriyatlari haqida tizimli bilim beriladi. Bu jarayonda tarixiy bilimlar faqat akademik ma'lumot sifatida emas, balki yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi va milliy o'zligini shakllantiruvchi tarbiyaviy vosita sifatida ham qaraladi. Natijada yoshlar o'zlarini jamiyatning faol a'zosi va mamlakat kelajagi uchun mas'ul avlod sifatida idrok etishga yo'naltiriladi.

Ikkinchidan, tarixiy xotira va madaniy merosdan samarali foydalanish Xitoy vatanparvarlik tarbiyasining muhim yo'nalishlaridan biridir. Tarixiy yodgorliklar, muzeylar, memorial majmualar, milliy bayramlar va madaniy tadbirlar orqali yoshlarning mamlakat o'tmishi bilan bevosita tanishishiga sharoit yaratiladi. Bunday vositalar tarixiy voqealarni yoshlar ongiga yanada ta'sirchan shaklda yetkazib, ularda ajdodlar merosiga hurmat, milliy iftixor va tarixiy davomiylik hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarixiy xotiraning yoshlar tarbiyasiga integratsiya qilinishi ularning milliy identifikatsiyasini mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish Xitoy tajribasining o'ziga xos jihatlardan biri hisoblanadi. Yoshlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardagi yuqori faolligi hisobga olinib, tarbiyaviy mazmundagi axborotlar an'anaviy shakllar bilan bir qatorda raqamli vositalar orqali ham yetkazilmoqda. Virtual muzeylar, multimedia materiallari, qisqa videolar, onlayn ta'lim loyihalari va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'rifiy kontentlar yoshlarning e'tiborini jalb etish hamda ularga milliy tarix va qadriyatlarni zamonaviy shaklda tushuntirish imkonini bermogda [4]. Shu tariqa, raqamli muhit vatanparvarlik tarbiyasining qo'shimcha va ta'sirchan kommunikativ maydoniga aylanmoqda.

To'rtinchidan, Xitoy tajribasida vatanparvarlik tarbiyasining uzluksizligi va tizimliliigi kuzatiladi. Tarbiyaviy ishlar faqat muayyan fan yoki tadbir doirasida olib borilmay, balki ta'lim, madaniyat, axborot va jamoatchilik faoliyati orqali muntazam ravishda davom ettiriladi. Bunday yondashuv yoshlarda vatanparvarlikni vaqtinchalik hissiy holat emas, balki barqaror fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyat va kundalik xulq-atvorning bir qismi sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, Xitoy tajribasini boshqa davlatlarga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish maqsadga muvofiq emas. Har bir *Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Siyosat*

mamlakat mazkur tajribadan foydalanishda o'zining tarixiy taraqqiyot yo'li, milliy qadriyatlari, madaniy an'analari, yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va mavjud ta'lim tizimini hisobga olishi zarur. Xorijiy tajribani o'rganishning asosiy maqsadi uning tashkiliy va metodik jihatlari tahlil qilib, milliy sharoitga mos keluvchi samarali mexanizmlarni aniqlashdan iborat bo'lishi lozim. Shu jihatdan Xitoy modeli yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim, tarixiy xotira, madaniy meros va raqamli kommunikatsiyani o'zaro uyg'unlashtirish bo'yicha muhim tajriba sifatida baholanishi mumkin.

CONCLUSION (Xulosa)

Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish uzluksiz, tizimli va ko'p omilli jarayondir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Xitoyda vatanparvarlik tarbiyasi davlat siyosati va ta'lim tizimi bilan uzviy bog'langan.
2. Milliy tarix, madaniy meros va davlat ramzlari yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirish vositasi sifatida qo'llaniladi.
3. Raqamli texnologiyalar zamonaviy vatanparvarlik tarbiyasining muhim instrumentiga aylangan.
4. Yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish orqali ularda mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasi rivojlantiriladi.

Xitoy tajribasi O'zbekiston kabi milliy qadriyatlarga tayangan davlatlar uchun ta'lim jarayonida tarixiy xotirani kuchaytirish, raqamli ma'rifiy kontent yaratish va yoshlarni ijtimoiy loyihalarga jalb qilish yo'nalishlarida muayyan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Standing Committee of the National People's Congress of the People's Republic of China. *Patriotic Education Law of the People's Republic of China*. – 2023. – URL: https://www.hmo.gov.cn/zcfg_new/xf/202310/t20231027_37787.html
2. Zhao S. *A State-Led Nationalism: The Patriotic Education Campaign in Post-Tiananmen China* // *Communist and Post-Communist Studies*. – 1998. – Vol. 31, No. 3. – P. 287–302. – DOI: [https://doi.org/10.1016/S0967-067X\(98\)00009-9](https://doi.org/10.1016/S0967-067X(98)00009-9)
3. Kennedy K. J., Fairbrother G. P., Zhao Z. (eds.). *Citizenship Education in China: Preparing Citizens for the "Chinese Century"*. – New York: Routledge, 2014. – DOI: <https://doi.org/10.4324/9780203797129>
4. UNESCO. *Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives*. – Paris: UNESCO, 2015. – ISBN 978-92-3-100102-4. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000232993>
5. Bray M., Adamson B., Mason M. (eds.). *Comparative Education Research: Approaches and Methods*. 2nd ed. – Hong Kong: Comparative Education Research Centre, University of Hong Kong; Springer, 2014. – DOI: <https://doi.org/10.1007/978-3-319-05594-7>
6. Лю Пэнфэй, Красова Е. В. Современные тенденции развития китайской системы образования // *Территория новых возможностей. Вестник Владивостокского государственного университета экономики и сервиса*. – 2012. – № 1 (14). – С. 22–33. – URL: https://science.vvsu.ru/scientific-journals/journal/current/article/id/2145406271/2012_1_03sovremennye_tendentsii